

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## ESTETIK IDEAL VA POETIK IFODA MUSHTARAKLIGI

Azim Shoimov,  
filologiya fanlari nomzodi

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada o‘zbek va qardosh ozarbayjon xalqlari adabiyotining o‘tgan asr birinchi choragida yuzaga kelgan ayrim namunalari – Husayn Jovidning “Morol” hamda Hamzaning “Zaharli hayot...” dramalarini erk va ozodlik istagi, turkiy birlik va hamjihatlik sog‘inchi, mavzu va g‘oya mushtarakligi, dramaturglar estetik idealining o‘ziga xos qirralari, poetik talqindagi umumiy va individual jihatlar nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil va tadqiq etilgan.

*Kalit so‘z:* mafkura, qiyosiy-tipologik tahlil, dramaturgiya, qardosh xalqlar, adabiy-estetik tafakkur, ozodlik.

Istiqlol yillari adabiyotshunosligida qiyosiy-tipologik tahlil va talqinlarni sinfiy-mafkuraviy yondashuvlardan xorijda, adabiy-estetik qonuniyatlar asosida amalga oshirish imkoni yuzaga keldi. Mafkuraviy - siyosiy talablar negizida o‘rinsiz qisqartirishlar sodir etilgani va noqis matnlarga tayanib amalga oshirilgan, asl haqiqatga zid talqin va g‘ayriilmiy xulosalarning salbiy oqibatlarini adabiy ta’sir, adabiy-estetik tafakkur takomili asosida yangicha metodologik qarashlar, dunyoviy adabiy-estetik tamoyillar asosida xolis o‘rganishga keng yo‘l ochildi.

XX asr o‘zbek adabiyoti, xususan, dramaturgiyasining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojida Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodining o‘ziga xos o‘rni bor. Chunki Hamza o‘zining milliy romanchilik tamal toshini qo‘yish yo‘lidagi urinishlari, ma’rifiy va milliy ozodlikni targ‘ib etuvchi jangovor she’rlari bilan bir qatorda, ko‘plab dramatik asarlar ham yozib, o‘z davrida sahnalashtirdi. Bu asarlarning aksariyatida o‘tgan asr boshlaridagi o‘zbek xalqining hayot tarzi, o‘lka turmushida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisalar, bemalol aytish mumkinki, taraqqiy qilgan davlatlardan nisbatan ortda qolish, istibdod changalida o‘rtanishlarga olib kelgan ma’rifatsizlik va jaholatning keng tarqalishi bilan bog‘liq ayanchli qismati, bu fojialarni yuzaga keltirgan ijtimoiy-maishiy omillarni badiiy tadqiq etgan edi.

Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” va ozar dramaturgi H.Jovidning “Morol” dramalari millatning fojialarga to‘la turmush tarzini ma’rifatparvarlik hamda jadidchilik g‘oyalari negizida tubdan o‘zgartirish, kitobxon va tomoshabinga estetik ta’sir etish maqsadida bitilgani, o‘z davridayoq sahnalashtirilib, amaliy ahamiyat kasb etgani, shuningdek adabiyot tarixida o‘z o‘rniga ega ekani bilan ahamiyatlidir. Zotan, har ikkala dramaturg ham zamondoshlari singari o‘z asarlarida millatning achchiq qismati sabablarini izlashgan, iqtisodiy-madaniy qoloqlikni yuzaga keltirgan omillarni badiiy gavdalantirish, ulardan xalos bo‘lish yo‘llari haqidagi konseptual poetik hukmlarini chiqarishgan. Binobarin, ozodlik, el-yurt saodati yo‘lidagi kurash jarayonlariga munosib ulush qo‘shgan edilar.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Badiiy ijodning ana shu o‘zak masalasi xususida to‘xtalar ekanmiz, shubhasiz arxiv ma‘lumotlariga murojaat qilishga ham ehtiyoj sezamiz. Ular esa, Husayn Jovid dramalari o‘zbek sahnasiga chiqishi XX asrning 10-yillari oxirlariga to‘g‘ri kelishidan guvohlik beradi. Xususan, besh pardali “Shaydo” fojiasi dramaturgning Turkistonda sahnalashtirilgan ilk asaridir. Ozar adabiyotshunosi G‘ulom Mammadli ta’kidlashicha: “Shaydo” pyesasi ilk daf‘a 1919-yilda Ashxobodda, so‘ngra Samarqandda (o‘zbekcha) o‘ynaldi. Bokuda esa ilk daf‘a 1922-yilda, dekabr oyida o‘ynaldi». Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, G‘ulom Mammadlining yuqoridagi keltirilgan qaydi ayrim noaniqliklardan ham xoli emas. Jumladan, “Shaydo” dastlab Ashxobodda emas, balki Namanganda, so‘ngra Toshkent va Samarqandda, nihoyat Ashxobodda sahna yuzini ko‘rgan.

O‘sha kezda pyesasining hali muallif vatani – Ozarbayjonda ham sahnalashtirilmagani, “Sharq” dastasi hamda mazkur asarni Ashxobodda “Sport” teatr binosida sahnalashtirgan Arablinskiy nomidagi ozarbayjon dramtruppasining repertuari, diyorimizdagi harakatlanish trayektoriyasi, o‘zbek dramaturg va mutarjimlari bilan hamkorligi, adabiy ta’sir singari masalalarga bir oz oydinlik kiritadi. “Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 18-sentyabr sonida noma‘lum muallif tomonidan quyidagi xabar e’lon qilingan: “Namangandagi Kommunistlar klubi binosida “Sharq” dastasi tomonidan Husayn Jovidning “Shaydo yoki hibsdagi inqilobchilar”i (bir parda) o‘ynaldi”. Shu gazetaning 1919-yilgi 27-oktyabr sonida esa, “Musofir” imzoli muallif mazkur dramaning Toshkentda o‘zbek artistlari tomonidan sahnalashtirilganini qayd etadi. Oradan ko‘p o‘tmay, noyabr oyida “Shaydo” Ashxobodda sahnalashtirilgan. “Haqqoniy” imzoli muallifning “Zarafshon” gazetasi 1923-yil 15-mart sonida e’lon qilingan “Shaydo” sarlavhali taqrizi drama keyinchalik ham o‘zbek teatri sahnalarida namoyish etilganini tasdiqlaydi: “8-martda “Hurriyat” uyida Samarqand yosh teatr-u havaskorlari tomonidan Husayn Jovidning 5 pardalik “Shaydo” otliq pyesasi o‘ynaldi.

*Xalq ko‘b edi. O‘yun soat 9 da boshlandi. Bu o‘yunda katta ro‘llarni olg‘on Muhammad Amin va Rahmatullo o‘rtoqlar o‘z ro‘llarini muvaffaqiyatlik suratda ado etdilar. Abdulqodir bilan Husni Jamol Tutosh ham yaxshi o‘ynadilar. Lekin Rozaning ota-onasi ro‘lida o‘ynag‘onlar biroz sust ko‘rundilar. Boshqalarniki zararsiz edi.*

*Dekoratsiya (manzara)ning kamchiliklaridan va 5 inchi parda oxiridag‘i sovuq va g‘ayritabiiy holatdan sarfi nazar etilganda, umuman o‘yun yaxshi va ta’sirlik chiqdi – deyilsa bo‘ladir. Samarqand yosh teatru havaskorlarining “Shaydo” kabi shoirona yozilg‘on zo‘r bir asarni birinchi qatla zararsiz o‘ynag‘onlari, alarning kelgusida teatru ishlarida muvaffaqiyatlik xidmatlar ko‘rsatishlarig‘a umidimizni orttiradur».*

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Yuqoridagilardan ma’lum bo’lyaptiki, “Shaydo” O‘zbekistonda xoh gastrolida bo‘lgan ozar dramtruppalari, xoh mahalliy havaskorlar teatr dastalari tomonidan bo‘lsin, qayta-qayta sahnalashtirilgan. Asarning tili va shoirona uslubi saqlangan, muallif ijodiy niyati tomoshabinga to‘la yetkazib berilgan. H.Jovid qalamiga mansub “Shayx San’on” hamda “Iblis” dramalar ham yurtimizda ancha mashhur bo‘lgan.

1918-yilgacha jadidchilik g‘oyalarining kuchli ta’sirida bo‘lgan, keyinchalik ham dramaturgiya va teatrchilik ishlari bilan faol shug‘ullangan Hamzaning ozar dramaturgi asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgani shubha uyg‘otmaydi. Hamza besh jildlik To‘la asarlar to‘plamining 1988-yilda nashr qilingan uchinchi jildida “Shaydo va Rauza” nomli tugallanmagan drama ham joy olgan. Istiqlol yillari izlanishlari bu asar H.Jovidning “Shaydo” dramasi tarjimasini ekaniga oydinlik kiritdi. Ta’kidlanganiday, teatr ishlari bilan faol shug‘ullangan Hamza mazkur asarni tarjima qilgan va sahnalashtirgan bo‘lishi ham ehtimoldan u qadar uzoq emas. Bu tarixiy qaydlar va gipotetik tasmollarga asoslangan xulosa ekani bois, Hamza va Husayn Jovid asarlarini qiyosiy o‘rganib, ba’zi mulohazalarimizni ilmiy-adabiy jamoatchilik hukmiga havola etishni joiz deb bildik.

G.V.Plexanov tarixiy taqdiri, turmush tarzi, urf-odati bir-biriga yaqin xalqlarning yozuvchilari o‘rtasidagi ijodiy ta’sir chuqur ildiz otishi bilan bog‘liq qonuniyatni o‘rganib: *“Bir mamlakat adabiyotining ikkinchi mamlakat adabiyotiga ta’siri ularning har biriga mos ichki sotsial tartibning o‘xshashligi bilan to‘g‘ri mutanosiblikdadir. Bu o‘xshashliklar juda oz bo‘lgan choqda ta’sir mutlaqo bo‘lmaydi”*, – deb yozadi.

Darhaqiqat, dini va e’tiqodi bir; tili, urf-odat va an’analari, turmush tarzi o‘zaro yaqin bo‘lgan ozar va o‘zbek xalqi XX asr boshlarida ijtimoiy hayotda ham qismatdosh edi. Mustamlaka adabiy siyosat, jaholat va ijtimoiy tengsizlik keltirib chiqargan fojialar har ikki xalq taqdirida ham chuqur asorat qoldirgandi. “Morol” va “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramalarini qiyosiy aspektda o‘rganish davr fojialarining real manzaralarini ham yaqqol tasavvur etish, dramaturglarning ijodiy konsepsiyalari, estetik ideallarini poetik ifodalashdagi mushtarak va o‘ziga xos jihatlarini asosli muqoyasa qilish imkonini beradi.

Dramaturglarning estetik idealiga XX asr boshlari uchun xarakterli bo‘lgan ijtimoiy hayot hodisalari kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Syujet voqealarining xarakterlar tasviri orqali ifoda etilishida ham talay mushtarak jihatlar mavjud. Chunki, har ikki asar ham o‘zida jaholat va ma’rifat o‘rtasidagi azaliy kurashni aks ettiradi. Dramatik asarlarning markaziy qahramonlari ham o‘z davrining o‘qimishli, ziyoli, hur fikrli yoshlaridan tanlangan. Biroq avlodlar o‘rtasidagi qarashlar turfaligi bois, bu yoshlar jaholat va xurofot iskanjasidagi kimsalarning jiddiy qarshiligiga duch keladilar.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“Morol”dagi Jamilbey ham, “Zaharli hayot...”dagi Mahmudxon ham iqtisodiy to‘kis, ammo ilm-ma’rifat bobida ma’naviy qashshoq otalarning yakka-yu yagona farzandlari. Ularning o‘z farzandlari taqdiriga bo‘lgan befarq, bepisand munosabatlari mohiyatan qahramonlar tiynatidagi johillik va kibrga borib taqaladi. Shu tarzda xarakterlarning haqiqiy qiyofalari yorqin namoyon bo‘ladi. Turxonbey (Jamilbeyning otasi) va Mirza Hamdamboy (Mahmudxonning otasi) mol-dunyoga mehr qo‘ygan moddiy olam kishilari. Shu bois, yuksak insoniy tuyg‘ular va nafis ruhiy kechinmalarni tushunishmaydi va erkin muhabbatga royish berishmaydi. Fojianing asl ildizi farzandlarning irodasi, xohish-istagi va ko‘ngil mayli bilan hisoblashmaslikka borib taqaladi. Anglashiladiki, konflikt ikki otaning farzandlari taqdiriga nisbatan befarqligi, o‘g‘illarning jabrdiydaligi emas, balki otalar va bolalar o‘rtasidagi ijtimoiy-ma’rifiy, ruhiy-intellektual tafovutdan tabiiy ravishda kelib chiquvchi umummilliy, umuminsoniy kurash negizida kechadi. Ikkala dramaturg ham ota va o‘g‘il munosabatlari vositasida ikki ijtimoiy kuch – ma’rifat va jaholat o‘rtasidagi ziddiyatlar keltirib chiqargan kurash jarayonlarini badiiy gavidalantirishadi:

*Turxonbey. Yo ‘q, mening o‘g‘lim bo‘lsa, xabarsiz ish qilmas. Unga shunday bir qiz topganmanki, tushida ham ko‘rmagan. Ham go‘zal, ham ota-onasining yakkayu yagonasi, hamda nihoyat darajada boy.*

*Mirzahamdambay: ...Endi bittagina o‘g‘il bo‘lsa, mana o‘zini to‘y qilganimga o‘n-o‘n besh yil bo‘lib qoldi. Mana bu ikkinchi to‘yi, axir, bir durustroq, o‘zimizdan yuqori bo‘lmasa hamki, barobarroq joydan uylantiraylikki, ham orzumiz ushalsin, ham atrofdan kelgan yor-do‘stlarga ma‘qul bo‘lsin-da! Endi men shunday obro‘ bilan borib bir bechora kosibdi qizini olib beraman! Xalq meni nima deydi!..*

Turxonbey bo‘lg‘usi kelinning go‘zal bo‘lishiga e’tibor bermoqda. Biroq shunga qarab, uning nafosatdan begona ekani haqidagi yuqoridagi izohlarni inkor qilish mumkin emas. Chunki Turxonbey qizning zohiriy belgilarini nazarda tutmoqda. Uning uchun bo‘lajak kelin ota-onasining yakka-yu yagonasi (ya’ni yagona merosxo‘r) ekani va nihoyat darajada boy bo‘lishi muhimroq. Zotan otaning moddiy boylikka bo‘lgan xirsi chegara bilmaydiki, o‘g‘lini uylantirish niqobi ostida iqtisodiy mavqeyini mustahkamlashni ko‘zlaydi. Mirzaahmadboy esa, kelin bo‘lmishning go‘zal va xunukligiga unchalik e’tibor qaratmaydi. Qudasi iqtisodiy jihatdan o‘zidan baland bo‘lishi ham shart emas. Muhimi, qudaning mavqeyi o‘zidan past bo‘lib, yor-do‘stlari – o‘z atrofini qurshagan ijtimoiy muhit kishilari e’tiroziga sabab bo‘lmasligi lozim. Demak, “kosib” va boshqa kasb egalari uning “xalq” haqidagi tasavvuri doirasiga kirmaydi. Zotan, mamlakatdagi keskin tabaqalanish iqtisodiy to‘kis kishilarning o‘z xalqidan uzilib qolishiga olib kelgan edi. Asl jaholat va ma’rifatsizlik

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ham katta maqsadlardan mosuvollikda bo‘y ko‘rsatadi. Jumladan, yoshi bir joyga borgan Turxonbey bir o‘rinda farzandi tengi ma’suma Morolga zo‘rluk bilan uylanib olgan xudbin sifatida, boshqa o‘rinda o‘g‘lining erkin muhabbatiga qarshi bo‘lgan johil ota sifatida, boshqa o‘rinda esa, millat taqdiri va g‘ururiga mutlaqo loqayd kimsa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu hollar uning moddiy ahvolini o‘z maishatiga yo‘naltirishdan yuksala olmagan, dunyo mohiyati va saodatini oltin-kumushning qudratiga bog‘lab tushunishi, insoniy samimiyat va nafis tuyg‘ularni ham, o‘zgalarning qismatini ham nazariga ilmasligini oshkor etadi. Fikrimizni tasdiqlashi jihatidan quyidagi dialog xarakterlidir:

*Turxonbyey. Nodir! Nodir! Hech bir his, hech bir kuch, hech bir yer yo‘qki, u yerda oltin, kumush rol o‘ynamasin. Amin bo‘lingki, dunyoning butun izzati – butun saodati faqat pul bul bilan qo‘lga kiritiladi.*

*Nodirbyey (o‘rnidan turib). Ha, hamma narsa pul bilan qo‘lga kiritiladi, illo fazilat va insoniyat!..*

*Turxonbyey. Aslo! Aslo... Fazilat ham puldadir, insoniyat ham...(76-bet)*

Hamza Mirzahamdamboyni asar ishtirokchilari ro‘yxatiga kiritsa-da, aslida bu qahramon biror marta asar syujeti voqealarida jonli inson sifatida ishtirok etmaydi. Uning fikri do‘sti Abdiqodirboy tilidan bayon qilinadi. Ko‘rsatish, dalillash, qahramonga jonli qiyofa baxsh etish o‘rnini tafsil va bayon egallagani uchun ham qahramon xarakteri yetarlicha ochilmay qolgan. Ta’kidlash o‘rinliki, Hamzaning millat va yurt taqdiri, uning istiqboli haqidagi estetik ideali, joriy vaziyatni maktab, maorif, ilm-fan hamda matbuot, hidoyatga da’vat etish millat-u insoniyatni ma’naviy jihatdan uyg‘otish orqali to‘g‘ri izga solish xususidagi poetik hukmi – ijodiy konsepsiyasi Maryamxon obrazida badiiy tajassum topgan. Hamza ma’rifatparvarligi Qur’oni karim va shariat ahkomlariga qat’iy amal qilingani bilan ham alohida ajralib turadi.:

*M a r y a m x o n “...afandim, emdi tezdin ijti hod etingizkim, ikkovimiz qo‘limiz tutishib, zulmatda qolmish bu millatni, siz quyoshi bo‘ling-da, men mohitoboni bo‘lub, qorong‘i Vatanni yorutaylik; sizda erlarimizning holindan, ban mazluma oilalarimizning holindan g‘azetalarga yozishib, bir-birlarimizi ogohlantiraylik. Chin maqsadingiz bo‘lgan qizlar maktabi ochaylik, ban ma’naviy, siz moddiy xizmatda bo‘ling, qadrsiz hamshiralarimizning kasod o‘lmish bozorlarini ilmi naqdiy bila ko‘tarishaylik. Chin yashaylik, kelajakdagi avlodlarimizni mozorimizga borib, erlari sizga, qizlari bizning qabrimiz uzasina oq, qizil gullar sochub, Qur‘on o‘qub, ruhlarimizni olqishlarlik darajada bir xizmatlarni maydonga qo‘yaylik...*

*Yo‘q esa qiyomatgacha qabringiz millat va kelajakdagi millat avlodi tarafidan maqhur, qiyomat kuni esa janob Haq va rasul afandimiz qoshinda uyatli va sarnigun*

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

*o‘lmog‘ingizni xotirangizda yodgor qoldiram! Demak, orzu-havas o‘lsa o‘lsin, milliyat, insoniyat o‘lmasun!”*

Afsuski, maslag-u fikr, ilm-u ma‘rifatda yakdil bo‘lgan Mahmudxon va Maryamxonning istiqbol haqidagi shirin o‘y-xayollari, sof muhabbatlari, millat istiqboli yo‘lidagi urinishlari samara bermaydi. Birinchidan, Mahmudxonning jur‘atsizligi, “qadriyatlar” qobig‘ini yorib o‘tishga qurb topa olmasligi fikrintilishlarga nisbatan qilingan zulm zarbalariga dosh berolmaydi. Ikkinchidan, har ikkala adabiy qahramon fojiasi ham, aslida o‘z ongosti tuyg‘ulariga sadoqat ko‘rsatib nosog‘lom muhit, adolatsiz tuzum va millatni halok etuvchi johillig-u nodonlikka qarshi amalga oshirilgan ogohlikka chorlovchi isyon edi.

Husayn Jovid o‘z g‘oyaviy-badiiy niyatini keng va to‘laqonli yoritishida asarga bir qator hurfikrli yoshlar obrazining kiritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, “Morol”dagi millatparvar qahramonlar sifatida namoyon bo‘ladigan Beypo‘lat, Chingizbey kabi obrazlarda sho‘rolar davrida tarixiy shaxslarga bo‘lgan noxolis munosabat haqidagi hayotiy haqiqat va estetik ideal o‘zaro uyg‘unlashgan:

*Chingizbey (u yoqdan bu yoqqa yurib, o‘ta asabiy). Afu eting, afandim! Bunday chirik haqiqatlar bir necha bo‘sh boshlargagina sig‘ishi mumkin. Muhokamali bir odam, bu kabi bo‘htonlarga aslo quloq bermas. (Yanada shiddatli). Ozroq insof qilaylik, mana, har millatning tarixi maydonda... Ajnabiylar buyuk Iskandar, buyuk Napoleon deya o‘z qahramonlariga obidalar qo‘yayotirlar, haykallar tiklayotirlar. Faqat bizlar!.. Bizlar esa Chingiz kabi jahongirlarni, Temur kabi qahramonlarni qonxo‘r, vahshiy deya ayblaymiz.(83-bet)*

Keltirilgan parchadan ko‘rinadiki, Chingizbey asarga tasodifan kiritilgan obraz bo‘lmay, muallif tomonidan qo‘yilgan g‘oyaviy niyatni bajarishga xizmat qiladi. Husayn Jovid turkiy xalqlar tarixiga, tarixiy shaxslariga nisbatan tarqatilgan uydirmalar millatni shonli o‘tmishidan mosuvo qilib, istiqboliga rahna solish yo‘lidagi urinish ekanini Chingizbey obrazi vositasida ochiq-oshkor badiiy ifoda etgan. Umuman, H.Jovid ijodining mehvarini turkiy xalqlar taqdiri, shonli o‘tmishi, qadr-qimmat va shan-g‘ururi masalalari tashkil etadi. Dramaturg turkiy xalqlarni yaxlit millat sifatida idrok etadi va bu haqiqat uning bir qator asarlari, xususan “Morol” dramasida asli kurashchan va mard bo‘lgan turkiy qavmga mansub er yigitning hech qachon bo‘yni bukik va miskin bo‘lmasligiga qarshi isyon jasorat bilan poetik ifodaga ko‘chirilgan. Dramaturgning da‘vat va chorlovlari sho‘rolarning millat tiynatiga singdirayotgan qo‘rquv saltanatiga qarshi qaratilgan edi.:

*Byeypo‘lat. Bayram! O‘g‘lim, diqqat bilan quloq os! So‘zimni, nasihatimni tingla!.. Sen bir sodda yigitsan, bu hol senga yarashmas. Sen bir turk o‘g‘lisan, mard*

# "O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

*o'g'il aslini unutmaz. Er o'g'li er bo'l, ko'nglingni tor tutma!.. Eshit, senga nima deyapman, so'zlarimni unutm!..*

*Byeypo'lat. Afandilar! Jasoratimning afv etilajagiga aminman, chunki samimiyatdan ilgari kelgan qusurlar doimo afv etiladi. Mening tabiatim shunaqa o'zi!.. Qayerda bo'yini bukik va miskin bir erkakka duch kelsam, darhol asablarimga tegadi, xususan u odam turk qavmiga mansub bo'lsa!..(85-bet)*

Har ikki dramada ham xurofiy aqidalar bilan og'ulanib, o'z nafsining quli bo'lgan ayrim "shariat peshvolari" davr fojialarini to'ratgan – yoshlar erkin muhabbati, mustaqil turmush va dunyoviy intilishlariga rahna solayotgan kimsalar sifatida bo'y ko'rsatishadi. Mutaassiblik dadil inkor etilgan bunday o'rinlarda dramaturglar g'oyaviy-estetik idealiga xos milliy va umuminsoniy jihatlar – hurfikrlilikdan kelib chiquvchi tolereantlik yorqin namoyon bo'ladi. Jumladan, "Morol" asarining qahramoni Nodirbey:

*"Bilmadim!.. Faqat menimcha: shariat insonlarning najot va saodati uchun qilingan bir qonundir. Xalqni halokatli o'pqonlarga itaruvchi bir qonun esa o'ta chirik va ma'nisiz bir afsona demakdir(110-bet), desa, Hamza asarining qahramoni Maryamxonim Eshonga qarshiturib dadil tarzda:*

*"Shariat mandek bir sag'ira mazlumani sen kabi bugun, erta o'lim egasi bo'lgan noinsof cholga hargiz buyurmas... Shariat ham avval meni qabul qilmog'im bilan buyuradi... Nikoh tarafaynning ijob qabuli bilan halol bo'lur. Men qabul qilmasam nikoh harom. Shariat uzasidan men qabul qilmasam..."deyishga jur'at etadi. (16 -bet)*

"Morol" dramasida zehn-idrokli, tarbiyali va benihoya latofatli Morol fojiasi aks etgan. Bu maftunkor go'zal otasidan o'n besh yoshida yetim qolib, himoyasiz qolgani uchun hamiyatsiz katta mulkdor – "xudoning ikki oyoqli balosi" bo'lgan Turxonbey changaliga tushadi. Dramaturg ikki yil davomida shu manfur va jirkanch nusxa bilan yashashga majbur bo'lib kelayotgan Morolning ruhiy iztiroblari, shoirona dilida kechgan o'kinch-armonlar orqali haq-huquqidan, erkidan mahrum etilgan Sharq ayollarining fojiasini qiyosiy aspektda badiiy gavdalandiradi:

*"Morol. Oh, bu go'zal bahor har kimning ko'nglini ochgani holda negadir meni siqadi. Bu rangorang chechaklarning muattar bo'ylari go'yoki meni bo'g'adi. Bu shatoratli bulbullarning sevimli nag'malari go'yo mendan kuladi yoxud mening tolesizligimdan yig'laydi.*

*Nozli (yasama bir kulgu bilan). Xudo haqqi, shunday bir podshoh saroyida yashagan xonim ham toleidan shikoyat qiladimi?*

*Morol. Haqqing bor, Nozli opa!.. Lekin bu muazzam uy, bu muzayyan va go'zal xonalar menga zimiston mozorlardan ham tor va qayg'ulidir. Uff, baxtiyorlik ichra*

## “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

*o‘lmoq – kadalari iztiroblar ichra yashamoqdan ming bora xayrli ekan...”(72-73-betlar)*

Suyukli Arslonidan ayrilib, qanotlari qayrilgan Morolda ko‘ngilsiz turmushi va buning bosh sababchisi bo‘lgan Turxonbeyga ham, uning boyligiyu shon-shuhratiga ham kuchli nafrat majud. Dastavval o‘z botinida pinhon bo‘lgan bu muhabbat va nafrat Jamil va Xumoy samimiy muhabbatiga guvoh bo‘lgach, tashqariga vulqon yanglig‘ otiladi:

*Morol (Turxonbey chiqqan eshikka yaqinlashib). Ket, ket, xudoning ikki oyoqli balosi!.. Ketginki, ko‘zlarim o‘sha burishgan murdor yuzingni ko‘rmasin!.. Quloqlarim ko‘ngil ozdiruvchi o‘sha tovushingni eshitmasin (Eshikni yopadi). Ilohi!.. Men nima gunoh qildimki, bunday azoblar ichinda mahv bo‘lib ketaman!.. (derazadan boqqa qarab asabiy va qayg‘uli). Oh, baxtiyor Humoy!...(Ro‘molchasini chiqarib ko‘z yoshlarini artmoqchi bo‘larkan bir rasm tushadi, darhol yerdan olib hasrat-la boqadi, ahvoli o‘zgaradi). Oh, Arslon! Sevgili Arslon! (O‘pib). Bir bora seni ko‘rsaydim, o‘lmasdim. Ha, hech bo‘lmasa sening quchog‘ingda o‘lsaydim, yanada ma’sud bo‘lardim. (108-bet)*

Ko‘rinadiki, u Turxonbeyning nainki yuzi, hatto tovushini eshitishni ham tilamaydi. Chunki Morolning qalbi erishilmagan ishq – jisman mahv etilgan, ammo qalbda tobora alanga olayotgan muhabbat bilan to‘liq. U vositali ta’sir ostida bo‘lsa ham, g‘am-hasratga limmo-lim bu xonadondan qutulish, sevgilisi Arslonga yetishish yo‘llarini izlaydi. U ham xuddi “Zaharli hayot...”dagi Maryamxon singari aqidaparastlikka qarshi borishga ahdlansa ham, bemor onasi taqdiri hamda nomussiz degan isnodga qolishdan qo‘rqib, ikkilanadi:

*Morol (Sarosimali va telbalarcha bir holda). Oh, yo, Rabbiy! Har ikki tarafim ham tahlikali jarlik... Bu yerda qolsam, Turxonbeyning murdor nafasi, qochsam, nomus, iffat masalasi meni tamom qiladi, mahv etadi. (116-bet).*

Har ikki dramaturg ham xarakterli voqealar tasviri orqali diniy mutaassiblik–jaholat va nafs bandalari hukmron bo‘lgan biqiq muhit va jamiyatda xotin-qizlar haququqsizligi fojialarini yuzaga keltirgan omillarni badiiy inkishof etishgan.

Husayn Jovid “Morol”da Morol fojiasi sabablarini badiiy aks ettirish barobarida mavjud nobop ijtimoiy hayotga, chirkin xurofiy aqidalarga qarshi dadil kurasha oladigan Jamilbey, Beypo‘lat, Chingizbey, Xumoy singari bir qator hurfikrli yoshlarning jonli obrazlarini ishonarli chiza olgan. Bu yoshlar inson erki, erkin muhabbat masalalarida o‘z qarashlarini sobit turib himoya qiladilar. Jumladan, Jamilbey va Xumoyning muhabbati johil ota va mutaassib shariat peshvolarining jiddiy qarshiligini yengib o‘tadi. Garchi maftunkor Morol razil Turxonbey otgan o‘qdan halok bo‘lsa-da, drama optimistik ruhda yakun topadi: Morolning o‘limi



# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Turxonbeylar jamiyatiga nisbatan isyon sifatida bo‘y ko‘rsatsa, Jamil va Xumoy muhabbatining sobitligi jamiyatga yangi bir hayotbaxsh epkin kirib kelayotganiga ishora qiladi.

Asar voqealari tasvirlangan davrdagi ikki xalqning fojialarga to‘la hayoti, iztiroblari-yu orzu-armonlari ham bir-biridan katta farq qilgan emas. “Morol”da ko‘tarilgan masalalar bizning xalqimiz hayotiga ham aynan daxldor edi. Hamzaning milliy adabiyotimiz, madaniyatimiz oldidagi salmoqli xizmatlarini zarracha kamsitmagan holda aytishimiz mumkinki, dramaturg “Zaharli hayot...”da xarakterlar g‘oyaviy-badiiy yukini yanada teranlashtirishi, xarakterli voqealar turfa yechimlarini topishi mumkin edi. Biroq dramaturg muammolar adadini oshirmaydi. Chunki u birinchidan, tezkor davr talabi bo‘yicha tomoshabinni dolzarb muammo bilan yuzlashtirish orqali uni o‘ylashga, fikran uyg‘onishga da‘vat etadi. Ikkinchidan, masala mohiyatiga mumtoz dostonchilik an‘analari negizida yondashadi. Zotan, o‘zbek dramaturgiyasi ham, Hamza ijodiy kredosi ham hali romantik an‘analardan butkul uzilmagan, realistlik prinsiplarni qaror toptirish yo‘lida izlanish bosqichida edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turli jug‘rofiy hududda yashab, ijod etishiga qaramasdan, bu ikki adib ijodiy merosiga daxldor yuqoridagi dramatik asarlarning qiyosiy tipologik va analitik tahlili ular estetik ideali badiiy ifodasida talay umumiylik va o‘ziga xoslik mavjudligini ko‘rsatadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Məmmədli G. “Ҳавид – օмыр бой”. “Azərbaycan”, 1981-il №7.
2. Ishtirokiyun. 1919-yil, 18-sentyabr.
3. Haqqoniy. “Shaydo”. “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil, 15-mart.
4. Sultonov Izzat va boshq. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. Ikkinchi tom.
5. Hüseyn Cavid. Əsərləri. 5 cildə. 2-cild. Bakı- “Elm” – 2007.
6. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami. Besh tomlik. Uchinchi tom Toshkent: Fan 1988.
7. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
8. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
9. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
10. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(10), 415-419.

## “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

11. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(03), 1-6.
12. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
13. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
14. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.